

## O'ZBEKISTON SUV OMBORLARI

*Narzullayeva Mehriniso Fayzullo qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi*

**Annotasiya:** O'zbekistonda suv omborlari mamlakatdagi daryo suvlarini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek sug'orish, elektr energiyasi olish va rekreatsiya maqsadida ham foydalaniladi. Chorvoq, tuyamo'yun, andijon, qayroqqum, janubiy surxon, kattaqo'rg'on, chorvoq, andijon, suv omborlari bu jarayonda asosiy ahamiyatga ega. Yaqin kelajakda suv omborlarini muhofaza qilish va boshqarish strategiyalari milliy va mintaqaviy darajada yanada rivojlanishi kutilmoqda.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston suv omborlari, sug'orish, elektr energiyasi, iqlim o'zgarishi, ekologiya, qishloq xo'jaligi, suv resurslarini boshqarish, chorvoq, tuyamo'yin, andijon.

**Annotation:** In Uzbekistan, reservoirs play a critical role in managing the country's water resources. These reservoirs are primarily used for irrigation, electricity generation, and providing drinking water. The Charvak, Tuyamuyun, Andijan, and Kayrakkum reservoirs are essential in this process. These infrastructure facilities are vital for ensuring the sustainability of the country's agriculture and ecology, as well as requiring effective strategies to tackle global issues such as climate change. In the near future, strategies for the conservation and management of reservoirs are expected to be further developed at both national and regional levels.

**Keywords:** Uzbekistan reservoirs, irrigation, electricity, climate change, ecology, agriculture, water resource management, charvak, tuyamuyun, andijan.

O'zbekiston suv omborlari mavzusi juda muhimdir, chunki ushbu infrastruktura mamlakatning suv resurslarini boshqarishda katta ahamiyatga ega. Mamlakatda 50 dan ortiq katta va kichik suv omborlari mavjud bo'lib, ular sug'orish, elektr energiyasi ishlab chiqarish, daryo suvlarini tartibga solish, rekreatsiyada muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda yozgi "chilla" vaqtida ekinzor va bog'lar tez-tez sug'orishni talab etadi. Ularni bu vaqtda suv bilan ta'minlash maqsadida daryolarda suv omborlar qurilgan.

Daryolar	Daryoda qurilgan suv omborlar
Chirchiq	Chorvoq
Zarafshon	Kattaqo'rg'on va quyimozor
Ohangaron	Tuyabo'g'iz (Toshkent)
Surxandaryo	Janubiy Surxon

Qashqadaryo	Chimqo'rg'on
Qoradaryo	Andijon

Chorvoq suv ombori toshkent viloyati chirchiq daryosi ustida qurilgan bo'lib, asosan sug'orish va elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun foydalaniladi. Uning maydoni nisbatan kichik , lekin suv hajmi ancha katta bo'lib, 2 mlrd metr kubni tashkil etadi.

Tuyamo'yin suv ombori amudaryo bo'yida joylashgan. Bu suv inshooti asosan Orolbo'yi mintaqasining suv ta'minoti va yerlarni sug'orish uchun xizmat qiladi. Bu suv omborining suv sig'imi 7 mlrd metr kubni tashkil etadi.

Andijon suv ombori Qirg'iziston va O'zbekiston chegarasida joylashgan. Farg'ona va oloy tizmalaridan boshlanuvchi qoradaryoda qurilgan. Undan asosan sug'orish maqsadida foydalaniladi.

Kattaqo'rg'on suv ombori zarafshon daryosida qurilgan. Suv ombor Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahri yaqinidagi tektonik botiqda barpo etilgan. U zarafshon daryosining o'ng irmog'i Oqdaryodan suv oladi. Uning suv sig'imi 1 mlrd metr kubni tashkil etadi. Zarafshon daryosida yana quyimozor suv ombori ham bor. Uning suv sig'imi 350 mln metr kub , maydoni 6 kvadrat kilometr , eng chuqur joyi 22,8 metr.

Jizzax suv ombori Toshkent-mirzacho'l okrugi sangzor vodiysida joylashgan. Uning suv sig'imi 90 mln metr kubni tashkil etadi.

Amudaryodan suv oluvchi Amu-Buxoro kanalida To'dako'l suv ombori qurilgan bo'lib, u Buxoro viloyati hududida joylashgan. Uning suv sig'imi 1 kilometr kub.

Qashqadaryo viloyati hududida nisbatan kichikroq bo'lgan Chimqo'rg'on, Qamashi, Pachkamar suv omborlari bahorgi suvlarni to'plash maqsadida barpo etilgan. Amudaryodan suv oluvchi Qarshi magistral kanalida qurilgan Sho'rsoy va Talimarjon suv omborlari ham aynan Qashqadaryo viloyatida joylashgan.

O'zbekiston suv omborlari mamlakat iqtisodiyoti, xo'jalik yerlarini sug'orish ,suv resurslaridan samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Ularning to'g'ri boshqarilishi qishloq xo'jaligini rivojlantirish, aholi ehtiyojlarini qondirishda juda muhimdir. Suv resurslarini samarali boshqarish va muhofaza qilish uchun innovatsion yechimlar va strategiyalar ishlab chiqish zarurdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayeva. I. E. (2003) "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi " Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
2. Nurov. U. N. (2006) "O'zbekiston tabiiy geografiyasi ". Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
3. Abdunazarov. L. M, Qambarova. SH. A, Tobirov. O. Q. (2017) "Markaziy Osiyo geografiyasi " Farg'ona: Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti.
4. Ikramova. M. (2019) Toshkent: "Suv omborlari gidrologiyasi "